

# **Uzbekistan Airways aviakompaniyasi bortkuzatuvchilarini qabul qilishini e'lon qiladi (o'g'il-qizlar)**

**2025 21 Yanvar**

Uzbekistan Airways aksiyadorlik jamiyati havo kemalarining bort kuzatuvchisi kasbini egallashni xohlovchilar uchun o'zining O'quv-mashg'ulot markazida boshlang'ich o'qitish jarayoni boshlanganini e'lon qiladi. O'quv-mashg'ulotlari uchun to'lov Uzbekistan Airways aviakompaniyasi tomonidan to'lanadi.

Hujjatlarni topshirish va ularni ko'rib chiqish faqat elektron ravishda amalga oshiriladi.

O'qish uchun tanlovda ishtirok etishni xohlagan nomzodlar anketani to'ldirishlari kerak hamda quyida ko'rsatilgan hujjatlarning skanerlangan nusxalarini tayyorlashlari va hammasini [ca.school@uzairways.com](mailto:ca.school@uzairways.com) elektron manziliga yuborishlari zarur.

Nomzodlarning aviakompaniya xodimlari bilan aloqalari ta'minlanmagan. Taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqish ijobiy natija bergen taqdirda nomzod telefon orqali suhbatga taklif qilinadi.

Nomzod taqdim etishi zarur bo'lgan hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi fuqaro pasporti;

Foto 4?6

Ish yoki o'qish joyidan ma'lumotnomasi;

Oliy yoki o'rta-maxsus ma'lumot diplomi (chet el diplomi bo'lsa, O'zbekiston Respublikasida nostrifikatsiya qilingan bo'lishi kerak), ishga faqat sirtqi bo'limda o'qiydigan talabalar qabul qilinadi;

Harbiy guvohnoma (agar bo'lsa);

Yashash joyidan ma'lumotnomasi;

Anketa (yuklab oling).

Nomzodga qo'yiladigan talablar:

Nomzod O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lishi va tugallangan oliy yoki o'rta-maxsus ma'lumotga ega bo'lishi kerak;

Yoshi 18dan 25gacha (25 yoshga to'lganlar qabul qilinmaydi);

Yigitlar uchun: bo'yi 175 dan 185 santimetrgacha, kiyim o'lchamini 40-46 (Yevropa o'lchovida);

Normal tana massasi indeksi Ketebo'yicha (18,5-24,9);

Qaddi-qomati kelishgan va nozik, yurishda nuqsonlar bo'lmashligi kerak;

Orasta soch turmag'i yoki shakli, erta kallik belgilari, kesilgan joylar bo'lmagan, sochlari tabiiy rangga ega bo'lishi kerak (uzun sochlari kiyimning yoqasiga tegmasligi uchun orasta turmakda bo'lishi kerak);

Ko'rinaridigan nuqsonlar va assimetriyasiz yuz, teri toza bo'lishi kerak, yuz ifodalari va mimikalar ijobiy taassurot qoldirishi, muloqot qilish uchun qulay bo'lishi va har bir vaziyatda zarur bo'lgan his-tuyg'ularni ifodalashi kerak (tushunish, do'stona munosabat, g'amxo'rlik, hamdardlik);

Tishlar tekis, toza, to'g'ri tishlash bilan, old tishlarda oq yoki sariq tish koronkalari bo'lmashligi lozim;

Qo'llar parvarish qilingan bo'lishi zarur. Qo'lning shakli to'g'ri va mutanosib bo'lishi darkor, barmoqlari mavjud bo'lmaganlar (falanjlar) qabul qilinishi mumkin emas;

Tananing ochiq joylarida chandiqlar, dog'lari va tabiiy belgilari, katta hollar, kuyish izlari va tatuirovkalar, pirsinglar mavjud bo'lsa nomzod qabul qilinmaydi;

Qaddi-qomati kelishgan bo‘lishi lozim.

Har qanday sababga ko‘ra o‘quv dasturini o‘zlashtira olmagan, dars qoldirayotgan, intizomni buzgan, qo‘pollik qilgan, tashqi ko‘rinishi to‘gri kelmaydigan nomzodlar bilan mehnat shartnomasi bekor qilinadi.

O‘quv mashg‘ulotlari Toshkent xalqaro aeroportidan uncha uzoqda bo‘lmagan “Uzbekistan Training Center” MCHJda bo‘lib o‘tadi.